


# SP-Control asosiy platasini yangitdan ta'mirlash

Yuqori samaradorlik va uzaytirilgan xizmat muddati uchun



## Siz uchun afzalliklar:

- Barqaror qadoq sifati
- Mashina samadorligining oshishi
- Keraksiz to'xtashlarning kamayishi
- Uzaytirilgan xizmat muddati




# SP-Control asosiy platasini yuqori samaradorlik uchun yangitdan ta'mirlash

Bir xil va barqaror qadoq sifatiga erishish

O'rash mashinasining SP-control asosiy platasini mashinaning o'rash va qadoqlash moslamasining ajralmas qismi hisoblanadi. U operatsion blokdan o'rash uchun zarur parametrlarni oladi va avtonom o'rash blokidagi aloqador qo'shimcha qurilmalarning barcha elektr jarayonlarini nazorat qiladi.

Rieter tajribasiga ko'ra, to'rt-besh yil uzluksiz ishlaganidan keyin asosiy platadagi ayrim elektron komponentlar umumiy o'rashning unumdorligini yomonlashtiradi. Bu keyingi jarayonlarga ta'sir qiluvchi tuzilma va zichlik jihatidan bir xil bo'lmagan qadoqlashga olib keladi.



Xususiy sinov jihozlari



Mashina urchug'ini simulyatsiya qilish tizimi

## Yangitdan ta'mirlash jarayonining umumiy ko'rinishi

Rieter asosiy platani sanoat turidagi yarimo'tkazgich komponentlaridan iborat ichki ishlab chiqilgan ta'mirlash majmuasi bilan yangitdan ta'mirlashni taklif qiladi. Elektr ta'minoti, operatsion konsol, kuchlanish elementi, baraban va asosiy plataning pilot drayverlari kabi turli funksional sxemalardagi komponentlarni almashtirish mashinaning asl unumdorligini tiklashga yordam beradi.

Yangitdan ta'mirlash jarayoni tugagach, asosiy plataning funktsionalligi Rieter kompaniyasining zamonaviy ta'mirlash zavodida tahlil qilinadi va sinovdan o'tkaziladi. Uzoq sikllik sinovlar mashinaning unumdorligi va sifatini ta'minlash uchun mavjud bo'lgan mashina modeli bilan fabrikaning haqiqiy ish sharoitlarini simulyatsiya qilish orqali amalga oshiriladi.

Asosiy platani yangitdan ta'mirlash profilaktika vaqti va xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish uchun mashinaning muntazam xizmat ko'rsatish intervalining bir qismi sifatida rejalashtirilishi mumkin. Rejalashtirilgan profilaktik ta'mirlash jadvali bilan kutilmagan va rejalashtirilmagan buzilishlarning oldini olish yoki sezilarli kamaytirish mumkin.

Vakolatli Rieter ta'mirlash servis markazi SP-control asosiy platasini profilaktik ta'mirlash xizmatini amalga oshirishi mumkin.

**Rieter Machine Works Ltd.**  
Klosterstrasse 20  
CH-8406 Winterthur  
T +41 52 208 7171  
F +41 52 208 7283  
aftersales@rieter.com

**Rieter India Private Ltd.**  
Gat No. 768/2, Village Wing  
Shindewadi-Bhor Road  
Taluka Khandala, District Satara  
IN-Maharashtra 412 801  
T +91 2169 664 141  
F +91 2169 664 226

**Rieter (China) Textile  
Instruments Co., Ltd.**  
390 West Hehai Road  
Changzhou 213022, Jiangsu  
Xitoy Xalq Respublikasi  
T +86 519 8511 0675  
F +86 519 8511 0673

Bu broshyuradagi ma'lumotlar ta'minotchisiga tegishli ma'lumotlar va rasmlar chop etish sanasi holatiga to'g'ri. Rieter maxsus bildirishnomasiz istalgan vaqtda har qanday o'zgartirish kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Rieter tizimlari va Rieter ixtirolari patentlar bilan himoyalangan.

3557-v1 uz 2301